



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'ZBEK SO'MINING QADIRSIZLANISH OQIBATI VA UNING YECHIMLARI

Xo`jamberdiyev Behruz Rafiqjon o`g`li

ALFRAGANUS UNIVERSITY Iqtisodiyot fakulteti jahon

iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo`nalishi 1 - kurs talabasi

Annotatsiya: O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy o'zgarishlar, inflyatsiya, va pulning qadirsizlanishi bilan bog'liq bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Pul qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiya, davlat iqtisodiyotining har bir sohasiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa aholi daromadlarini kamaytiradi, turmush sharoitini og'irlashtiradi va umumiy iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu insho orqali O'zbekistondagi pulning qadirsizlanishining asosiy sabablari va bu muammoni hal qilish yo'llari haqida tahlil qilishga harakat qilamiz.

**Tayanch so`zlar:** Pulning qadirsizlanishi, Inflyatsiya, Iqtisodiy o`zgarishlar, Davlat iqtisodiyoti, Iqtisodiy barqarorlik

Xo`jamberdiyev Behruz Rafiqjon o`g`li

*University of Alfraganus Faculty of Economics Department of Global Economy and
International Economic Relations 1st-year student*

Annotation: In recent years, Uzbekistan has faced several issues related to economic changes, inflation, and the devaluation of the national currency. Currency devaluation, i.e., inflation, can affect every sector of the country's economy, which results in reduced incomes, worsened living conditions, and negatively impacts overall economic stability. This essay aims to analyze the main causes of currency devaluation in Uzbekistan and explore potential solutions to address this issue.

Keywords: Currency devaluation, Inflation, Economic changes, National economy, Economic stability

Kirish

O'zbekistonda pulning qadirsizlanishi, ya'ni inflyatsiya, so'nggi yillarda muhim iqtisodiy muammolardan biriga aylangan. Asosan, inflyatsiya narxlarning o'sishi va pulning haqiqiy qadri kamayishi jarayonini ifodalaydi, bu esa aholi daromadlari va yashash darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistondagi iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozoridagi vaziyat va ichki omillar pul qadrsizlanishining asosiy sabablaridan biridir. Ayniqsa, import tovarlarining qimmatlashuvi, milliy valyutaning kuchsizlanishi, hamda iqtisodiyotning global raqobatga tayyor emasligi kabi omillar inflyatsiyani kuchaytiradi. Buning natijasida, aholining turmush sharoiti og'irlashadi va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammo nafaqat iqtisodchilarni, balki davlatni va jamiyatni ham jiddiy o'yantiradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'zbekistonda pulning qadirsizlanishiga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash va bu muammoni hal qilish yo'llarini topish zaruriyatga aylangan.

Inflyatsiya degani bu - lotincha “inflatio” so'zidan olingan bo'lib, “shishish”, “bo'rtish”, “ko'tarilish” degan ma'nolarni anglatib, mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi (o'sishi) tushuniladi. Narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi natijasida mamlakat pul birligi (milliy valyuta) xarid qobiliyatining pasayishi ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi.

Xo'sh pulning qadrsizlanishi deganda biz nimani tushunamiz?

Pulning qadrsizlanishi deganda, bir xil miqdordagi pulga vaqti kelib kamroq bo'lgan tovar va xizmatlarni sotib olish, ya'ni sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorining vaqti kelib kamayishi tushuniladi.

Misol uchun, yilning boshida 1000 ming so'mga sotib olish mumkin bo'lgan kundalik iste'moldagi tovar va xizmatlarning miqdori yilning oxiriga kelib kamayadi. Bu esa 1000 ming so'mga yilning oxirida yilning boshidagiga nisbatan xuddi o'sha tovar va xizmatlarni kamroq miqdorda sotib olish demakdir.

Asosiy qism

Pulning qadirsizlanishiga bir necha sabablarni misol qili olishimiz mumkun

1 Pul massasining o'sishi yani pulni haddan ziyo ko` ishlab chiqarish bu degani; Davlat, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash yoki qarzlarini to'lash maqsadida ko'proq pul chiqarishi mumkin. Bu pulning bozorga ortiqcha kirib kelishiga olib keladi, natijada talab taklifni oshiradi va inflyatsiya yuzaga keladi. Pulni ko'paytirish, ayniqsa iqtisodiyotda resurslar cheklangan bo'lsa, uning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi.

2 Import narxlarining oshishi

Agar davlat import qilinadigan tovarlar narxi oshsa, bu narxlarning umumiy darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Import tovarlari asosan chet el valyutasida sotiladi, shuning uchun so'mning qadrsizlanishi (yani, xorijiy valyutaga nisbatan) inflyatsiyani oshiradi. So'mning qadrsizlanishi import tovarlarining narxlarini oshiradi, bu esa aholining kundalik xarajatlarini qiyinlashtiradi.

3 Monopolyalarning mavjudligi

Monopolist korxonalar narxlarni erkin oshirish imkoniyatiga ega bo'lib, bularning natijasida bozor narxlari oshadi. Monopoliyalashgan tarmoqlar, masalan, energetika yoki kommunal xizmatlar, narxlarni nazorat qilishda kuchli ta'sirga ega. Bu esa inflyatsiyaning yuqori bo'lishiga olib keladi

Bu yuqorida keltirgan sabalar pulning qadirsizlanishiga olib keladigan sabablar. Bunday sabablardan ko'p misol keltirsak bo'ladi ammo bu yerda ko'proq uchraydigan 3 sababni keltirdik. Biz so'mning qadirsizlanishini qayerdan bilsak bo'ladi degan savolga javoban raqamlar yani stastikaga murojat qilamiz

2023 yilda milliy valyutaning dollarga nisbatan qadrsizlanishi 9,2 foizni tashkil etib, so'nggi uch yilda birinchi marta valyuta kursining qadrsizlanishi yillik inflyatsiyaga



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



nisbatan yuqori shakllandi. Xususan yil davomida umumiy inflyatsiya 8,8 foizni tashkil etgan (1–diagramma).

Ma'lumot uchun: 2022 yilda milliy valyutaning qadrsizlanishi 3,3 foiz, inflyatsiya 12,3 foiz, 2021 yilda milliy valyuta qadrsizlanishi 2,9 foiz, inflyatsiya esa 10.0 foizni tashkil etgan

2022 yilda inflyatsiya darajasi 2,3 foiz bandga tezlashgan holatida milliy valyutaning qadrsizlanishi 0,4 foiz bandga tezlashgan xolos. Bunda valyuta kursining nisbatan barqaror saqlanib qolishi holat geosiyosiy vaziyatning keskinlashishiga qaramasdan rubl kursining nisbatan barqaror saqlanib qolishi natijasida mamlakatimizga transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmining yuqori suratlarda o'sganligi bilan izohlanadi.

Inflyatsiya darajasining tezlashishi esa oziq-ovqat taklif zanjiridagi uzilishlar natijasida oziq-ovqat inflyatsiyasining keskin tezlashganligi bilan izohlanadi.

Ma'lumot uchun: 2022 yilda transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmi 17,2 mlrd dollarni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 82 foizga o'sgan. 2022 yilda Oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi 15,6 foizni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 2,6 foiz bandga tezlashgan.

2023 yilda joriy hisoblar operatsiyasining defitsiti 7,8 mlrd dollarni tashkil etgan. Bunda tashqi savdo defitsiti 17,6 mlrd dollar (2022 yilda 13,7 mlrd dollar), birlamchi hamda ikkilamchi daromadlarning

mamlakatimizga sof oqimi 9.8 mlrd dollarni (2022 yil mos davrda 13,1 mlrd dollar) tashkil etgan.

Tashqi savdo defitsitining o'sishi tovarlar eksportining 2,3 mlrd dollarga o'sgani holatida tovarlar importi hajmining 6,2 mlrd dollarga o'sganligi bilan izohlanadi. Bunda importning asosiy o'sishi Xitoy hissasiga to'g'ri keladi. 2023 yilda Xitoydan import 76 foizga (4,9 mlrd dollar) o'sgan.

2023 yilda birlamchi daromadlarning mamlakatimizga sof oqimi – 761,3 mln dollarni, 2022 yilda esa 902,9 mln dollarni tashkil etgan. Bu holat ish haqi shaklida kelib tushgan o'tkazmalarning 1 mlrd dollarga kamayganligi holatida, mamlakatimizdan olib chiqib ketilgan investitsion daromadlarning 985 mln dollarga oshib 4,1 mlrd dollarga yetganligi bilan izohlanadi.

Ikkilamchi daromadlar hajmi 1,4 mlrd dollarga (yoki 14 foiz) qisqarib 10,5 mlrd dollarni tashkil etgan. bu holat Rossiya iqtisodiyotining sanksiyalar ta'sirida inqirozni boshdan kechirayotganligi hamda rublining qadrsizlanishi bilan izohlanadi.

Ma'lumot uchun: Rossiya iqtisodiyoti 2022 yilda – 2,2 foizga qisqarganligi kuzatildi. 2023 yilda o'sish ko'rsatkichlari tiklanib, iqtisodiyot 3,6 foizga o'sdi. Lekin bu ko'rsatkich geosiyosiy keskinlikdan oldingi o'sish (4,7 foiz) bilan taqqoslaganda sezilarli darajada past hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: Rossiya rubli dollarga nisbatan 18 fevraldan (geosiyosiy keskinlik oshishi arafasi) 2022 yil so'ngiga qadar 5 foiz qadri oshgan. Bu holat Markaziy bank tomonidan valyuta barqarorligini ta'minlash maqsadida ko'rilgan qo'shimcha chora tadbirlar bilan izohlanadi. 2023 yilda esa rubl dollarga nisbatan 22 foiz qadrini yo'qotdi.